



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 167 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
To'irova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahridinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	



OLIY TA'LIM TIZIMINI MIQDORIY VA SIFAT KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASHNING KOMPLEKS METODOLOGIYASI

Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Bozorova Muazzam Hamid qizi

Yangi asr universiteti o'qituvchisi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholash uchun yangi kompleks metodologiyani taklif etadi. Taklif etilayotgan metodologiya QS, THE va Shanghai ARWU kabi ilg'or xorijiy tajribalarni milliy qadriyatlarni hisobga olgan holda birlashtiradi. Yangi usul global raqobatbardoshlikni oshirish bilan birga, O'zbekistonning ma'naviy-ijtimoiy maqsadlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, sifat baholash, reyting metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot faoliyati, xalqaro hamkorlik, ta'lim sifati, global raqobatbardoshlik.

Abstract: This article proposes a new comprehensive methodology for evaluating the Uzbekistan higher education system based on quantitative and qualitative indicators. The suggested methodology integrates advanced international experiences such as QS, THE, and Shanghai ARWU, while considering national values. The new method enhances global competitiveness while supporting Uzbekistan's spiritual and social goals.

Key words: higher education, quality assessment, ranking methodology, research activity, international cooperation, education quality, global competitiveness.

Аннотация: Статья предлагает новую комплексную методологию оценки системы высшего образования Узбекистана на основе количественных и качественных показателей. Предлагаемая методология объединяет передовой международный опыт, такой как QS, THE и Shanghai ARWU, с учетом национальных ценностей. Новый метод повышает глобальную конкурентоспособность, одновременно поддерживая духовные и социальные цели Узбекистана.

Ключевые слова: высшее образование, оценка качества, методология рейтинга, научно-исследовательская деятельность, международное сотрудничество, качество образования, глобальная конкурентоспособность.

KIRISH

Oliy ta'lim tizimi zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini baholash Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 467-son qarori bilan tartibga solingan bo'lib, bu jarayon ta'lim sifati oshirish va milliy iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan. Biroq, global raqobatbardoshlikni ta'minlash va milliy madaniy xususiyatlarni yanada chuqur integratsiya qilish maqsadida yangi metodologiyaga ehtiyoj sezilmoqda. Ushbu maqola O'zbekiston oliy ta'lim tizimini baholash uchun ilg'or xorijiy tajriba va mahalliy qadriyatlarni birlashtirgan yangi metodologiyani taklif qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tizimini baholash xalqaro miqyosda turli metodologiyalar orqali amalga oshiriladi. QS World University Rankings akademik obro' (40%) va ilmiy iqtiboslarga (20%), Times Higher Education (THE) "o'quv muhiti" (15%) va "sanoat daromadlari"ga (2,5%), Shanghai ARWU esa ilmiy tadqiqotlar va nufuzli mukofotlarga (60-70%) urg'u beradi (Hazelkorn, 2015; Liu & Cheng, 2005; Marginson, 2014). Ushbu tizimlar global integratsiya, shaffoflik va innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, raqamli platformalar orqali ma'lumotlarni tahlil qilishni ta'minlaydi (Baty, 2017). Xorijiy tajribada talabalar tajribasi va ijtimoiy ta'sirga e'tibor cheklangan bo'lsa-da, ba'zi mamlakatlarda (masalan, Buyuk Britaniyada) talabalar so'rovnomalari mustaqil ravishda qo'llaniladi.



O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini baholash 2019-yilda yangilangan metodologiyaga asoslanadi, unda ilmiy faoliyat (40 ball), ta'lim sifati (30 ball) va bitiruvchilar natijalari (27 ball) asosiy mezonlar sifatida belgilangan (Qaror, 2019). Bu tizim mahalliy iqtisodiy ehtiyojlar va davlat nazoratiga urg'u bersa-da, xalqaro hamkorlik va innovatsiyalarga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Shu bilan birga, O'zbekistonning yoshlar siyosati milliy madaniy xususiyatlarni ta'lim tizimiga integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samarali baholash tizimi global standartlar bilan milliy xususiyatlar o'rtasida muvozanat topishi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini baholash jarayoni yig'ilgan ma'lumotlar, so'rovnomalar va nazorat ishlari natijalari asosida amalga oshiriladi. Reyting 100 ballik tizimda hisoblanib, natijalar tasdiqlangan mezonlar bo'yicha aniqlanadi.

Hisoblash jarayoni quyidagicha: har bir indikator bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega tashkilot maksimal ball oladi, qolgan tashkilotlar balli nisbiy hisoblanadi:

$$\text{Ball} = (\text{Tashkilot ko'rsatkichi} / \text{Eng yuqori ko'rsatkich}) \times \text{Maksimal ball}$$

Masalan, xalqaro nashrlar yoki talabalar test natijalari shu usulda taqsimlanadi. Har bir indikator bo'yicha ballar yig'ilib, umumiy reyting shakllanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini baholashning amaldagi metodologiyasi ma'lum darajada ta'lim sifatini baholash va tashkilotlarni rivojlantirishga xizmat qilgan bo'lsa-da, bir qator kamchiliklarga ega. Quyida ushbu metodologiyaning asosiy kamchiliklari ilg'or xorijiy tajriba (QS, THE, ARWU) va milliy ehtiyojlar bilan taqqoslash asosida tahlil qilinadi.

Amaldagi tizimda xalqaro hamkorlikka cheklangan vazn berilgan. Xorijiy professor-o'qituvchilar va talabalar ulushi (7 ball) va xalqaro almashuv dasturlari (5 ball) umumiy 100 balldan atigi 12 ballni tashkil qiladi. Xorijiy tajribada (masalan, QS'da 10% xalqaro nisbati) bu jihat global raqobatbardoshlik uchun muhim hisoblanadi.

Ilmiy faoliyatga 40 ball ajratilgan bo'lsa-da, xalqaro nufuzli jurnallardagi nashrlar (3 ball) va iqtiboslar (9 ball) umumiy vaznning kichik qismini tashkil qiladi. Shanghai ARWU'da ilmiy tadqiqotlar 60-70% ni qamrab olsa, amaldagi tizimda bu ko'rsatkich past.

Bitiruvchilar bilimi va ishga joylashishiga (27 ball) katta vazn berilgan, bu umumiy tizimning 27% ini tashkil qiladi. Xorijiy tajribada (masalan, QS'da ish beruvchilar bahosi 10%) bu ko'rsatkich ancha past bo'lib, ilmiy va akademik jihatlariga ko'proq e'tibor qaratiladi. Bitiruvchilarning ishga joylashishi iqtisodiy ehtiyojlarni qondirsa-da, bu ko'rsatkich ta'lim sifatining yagona o'lchovi sifatida ishlatilishi to'g'ri emas.

Amaldagi metodologiyada O'zbekistonning milliy madaniy xususiyatlari, xususan, ma'naviy tarbiya va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi jihatlar alohida indikator sifatida kiritilmagan. Faqat "ijtimoiy-ma'naviy muhit" talabalar so'rovnomasining bir qismi sifatida (2 ball) qisman qamrab olinadi.

Natijalar vakolatli organ veb-saytida e'lon qilinsa-da, har bir indikator bo'yicha batafsil ma'lumot taqdim etilmaydi. QS va THE'da har bir ko'rsatkich ochiq tahlil qilinsa, amaldagi tizimda bu jihat cheklangan. Jarayonning shaffofligi va ishonchliligi pasayadi, tashkilotlar o'z kamchiliklarini aniq ko'ra olmaydi.

Innovatsion mahsulotlar (patentlar, startaplar) ilmiy faoliyat ichida umumiy baholansa-da (4 ballning bir qismi), ularning iqtisodiy samarasi yoki sanoatga ta'siri alohida ko'rib chiqilmaydi. Infratuzilma faqat sport jihatidan (1 ball) baholanadi, laboratoriyalar yoki raqamli resurslar e'tibordan chetda qoladi. THE'dagi "sanoat daromadlari" yoki QS'dagi kutubxona sifati kabi mezonlar amaldagi tizimda yo'q.

Ba'zi indikatorlar (masalan, talabalar so'rovnomasi yoki sport faoliyati) aniq o'lchov mezonlarisiz baholanadi. Masalan, "ijtimoiy-ma'naviy muhit" qanday hisoblanishi aniq ko'rsatilmagan. Ma'naviy muhit yoki sport faoliyatining samaradorligi uchun standartlashtirilgan ko'rsatkichlar mavjud emas.

Jarayon to'liq vakolatli davlat organi tomonidan boshqariladi, mustaqil ekspertlar yoki xalqaro tashkilotlar jalb qilinmaydi. QS va THE'da baholash xususiy tashkilotlar tomonidan ochiq va mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Ushbu kamchiliklar biz tomonimizdan taklif etilayotgan yangi metodologiyada qisman bartaraf etilgan bo'lib, ilmiy nufuz, xalqaro hamkorlik va ma'naviy-ma'rifiy ishlar kabi jihatlariga ko'proq e'tibor berilgan (1-jadval).

Yangi metodologiya oliy ta'lim tizimining har tomonlama baholanishini ta'minlaydi. Ilmiy-tadqiqot faoliyati 45 ball bilan eng yuqori vaznga ega bo'lib, xalqaro nashrlar (13 ball) va akademik obro' (10 ball) global tan olinishni oshiradi. Ta'lim sifati (25 ball) talabalar so'rovnomasi (8 ball) va bilim darajasiga (7 ball) urg'u beradi. Xalqaro hamkorlik (12 ball) xorijiy talabalar va almashuv dasturlarini (9 ball jami) rag'batlantiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir (8 ball) bitiruvchilar sifati (4 ball) va infratuzilmani (4 ball) qamrab oladi. Yangi qo'shilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar (10 ball) milliy qadimiyatlarni targ'ib qilish (5 ball) va yoshlar faolligini (5 ball) baholaydi.



Natijalar shuni ko'rsatadiki, yangi tizim ilmiy nufuz va ta'lim sifatini oshirish bilan birga, O'zbekistonning ma'naviy-ijtimoiy maqsadlarini ham qo'llab-quvvatlaydi. Baholash natijalari shaffof e'lon qilinib, tashkilotlarni xalqaro ro'yxatlarga kirishga tayyorlaydi.

1-jadval. Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini baholash mezonlari (tavsiyaviy xususiyatda).

T/r	Baholash indikatorlari	Ball
I. Ilmiy-tadqiqot faoliyati va akademik nufuz		45
1.	Xalqaro nufuzli jurnallarda chop etilgan maqolalar (Web of Science, Scopus) va iqtiboslar	13
2.	Doktorlik dissertatsiyalari soni (PhD va DSc)	7
3.	Ilmiy tadqiqotlardan olingan mablag'lar (xorijiy grantlar, mahalliy buyurtmalar, davlat grantlari)	6
4.	Akademik obro' (xalqaro va mahalliy ekspertlar so'rovnomasi asosida)	10
5.	Innovatsion mahsulotlar (patentlar, startaplar, sanoatga joriy etilgan loyihalar)	4
6.	Mahalliy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar (Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatidagi jurnallar)	5
II. Ta'lim sifati va o'quv muhiti		25
7.	Talabalar so'rovnomasi (ta'lim sharoitlari, darslar sifati, baholash xolisligi)	8
8.	Mutaxassislik fanlari bo'yicha talabalar bilim darajasi (nazorat ishlari natijalari)	7
9.	Darsliklar va o'quv qo'llanmalari (yozilgan va ro'yxatdan o'tgan)	5
10.	Professor-o'qituvchilarning malakasi (xorijiy til va AKT bo'yicha test natijalari)	5
III. Xalqaro hamkorlik va integratsiya		12
11.	Xorijiy professor-o'qituvchilar va talabalar ulushi (umumiy songa nisbatan)	5
12.	Xalqaro almashuv dasturlari va qo'shma ilmiy loyihalarda ishtirok (talabalar va o'qituvchilar)	4
13.	Xorijiy tilda o'qitiladigan fanlar salmog'i (mutaxassislik fanlariga nisbatan)	3
IV. Ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir va infratuzilma		8
14.	Bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi (6 oy ichida) va ish beruvchilar bahosi	4
15.	Umumiy infratuzilma sifati (laboratoriyalar, kutubxonalar, sport va raqamli resurslar)	4
V. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va yoshlar bilan ishlash samaradorligi		10
16.	Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar (milliy qadriyatlarni targ'ib qilish, vatanparvarlik ruhini oshirish, sport-sog'lomlashtirish tadbirlari)	5
17.	Yoshlar bilan ishlash samaradorligi (talabalar jamoatchilik faoliyati, ijtimoiy loyihalardagi ishtiroki)	5
JAMI		100

Manba: QS, THE, ARWU metodologiyasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi.

Yangi metodologiya bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga (45 ball) va xalqaro hamkorlikka (12 ball) ko'proq e'tibor berilishi QS va Shanghai tajribasiga mos kelib, O'zbekiston tashkilotlarini global miqyosda raqobatbardosh qiladi. Ikkinchidan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar (10 ball) milliy madaniyatni ta'lim tizimiga integratsiya qilib, vatanparvarlik va ijtimoiy faollikni oshiradi. Uchinchidan, raqamli platformalar va shaffof e'lon qilish THE tajribasidan olingan bo'lib, jarayonning ishonchliligini ta'minlaydi.



Biroq, cheklovlar ham mavjud. Ilmiy nashrlar va xalqaro hamkorlikka qaratilgan yuqori talablar hozirgi infratuzilma va moliyaviy resurslar bilan cheklangan tashkilotlarda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning subyektiv baholanishi (masalan, tadbirlar samaradorligi) xolislik masalasini keltirib chiqarishi ehtimoli bor. Shu bilan birga, bitiruvchilar sifatiga ajratilgan ballning qisqarishi (27 dan 4 ballga) iqtisodiy ta'sirga e'tiborni biroz kamaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yangi metodologiya O'zbekiston oliy ta'lim tizimini global standartlarga yaqinlashtiradi va milliy madaniy xususiyatlarni muvozanatlashtiradi.

Ilmiy tadqiqotlar (45 ball) va xalqaro hamkorlik (12 ball) yuqori darajada saqlanib, QS, THE va Shanghai tajribasi hisobga olindi. "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va yoshlar bilan ishlash" bo'limi (10 ball) O'zbekistonning vatanparvarlik, milliy qadimiyatlarni targ'ib qilish va yoshlarni ijtimoiy faollikka jalb qilish siyosatini aks ettiradi. Ballar taqsimoti milliy ehtiyojlar (ma'naviyat, iqtisodiy ta'sir) va global talablar (ilmiy nufuz, xalqaro integratsiya) o'rtasida balansni ta'minlaydi.

Kelajakda ilmiy infratuzilmani rivojlantirish va ma'naviy indikatorlar uchun aniq o'lchov mezonlarini ishlab chiqish, shuningdek, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tizimni yanada takomillashtirishi mumkin:

oliy ta'lim tashkilotlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun zamonaviy laboratoriyalar, raqamli kutubxonalar va xalqaro ma'lumotlar bazalariga (Web of Science, Scopus) kirish imkoniyatlarini kengaytirish;

xorijiy universitetlar bilan qo'shma ta'lim va tadqiqot dasturlarini (masalan, dual degree yoki joint research projects) yo'lga qo'yish;

ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar (5 ball) va yoshlar bilan ishlash samaradorligini (5 ball) baholash uchun standartlashtirilgan ko'rsatkichlar ishlab chiqish (masalan, tadbirlar soni, ishtirokchilar soni, ijtimoiy loyihalarning natijasi);

yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholashda ijtimoiy loyihalardan tashqari, talabalarning startaplar va innovatsion tashabbuslardagi ishtirokini ham hisobga olish;

yangi metodologiyani to'liq joriy etishdan oldin, tanlangan tashkilotlarda (masalan, 5-10 ta universitetda) pilot sinov o'tkazish;

baholash jarayonida ishtirok etadigan xodimlar (vakolatli organ vakillari, tashkilot rahbarlari) uchun xalqaro tajriba asosida maxsus treninglar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 467-son qarori. www.lex.uz.
2. Baty, P. (2017). The Times Higher Education World University Rankings: Methodology and Transparency. Times Higher Education.
3. Hazelkorn, E. (2015). Rankings and the Reshaping of Higher Education. Palgrave Macmillan.
4. Liu, N. C., & Cheng, Y. (2005). The Academic Ranking of World Universities. Higher Education in Europe, 30(2), 127-136.
5. Marginson, S. (2014). University Rankings and Social Science. European Journal of Education, 49(1), 45-59.
6. Salmi, J. (2009). The Challenge of Establishing World-Class Universities. World Bank Publications.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
